



Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining tasviriy ko'nikmalarini shakillantiruvchi ta'lim texnologiyalari

Jummayeva Sayyora Shokir qizi

Termiz Davlat Pedagogika Instituti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining tasviriy ko'nikmalarini shakillantirishda turli xil ta'lim texnologiyalaridan foydalaniladi. Ta'lim texnologiyalari orqali bolalarda tasviriy san'atga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirish mumkin, turli xil yosh guruhlarida ham xattoki, turli interaktiv texnologiyalaridan foydalanilmasa natija sezilarli darajada o'zgarishligi mumkin. Shuningdek, yosh guruhlariga qarab metodlar osondan murakkablashib boraveradi.

Kalit so'zlar: tarbiyalanuvchilar, ta'lim texnologiyalari, interaktiv texnologiyalar, tasviriy san'at, loyihaviy ta'lim texnologiyalari, o'yin ta'lim texnologiyasi, noan'anaviy rasm chizish texnologiyalari

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat bolalarning ijodiy qobiliyatlari, estetik didi, tasavvuri, tafakkuri, motorikasi va dunyoqarashini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalari esa bu jarayonni yanada qiziqarli, zavqli, samarali va natijador qilishga va bolalar fikrini jamlashga va jarayonga ijodiy yondashishiga yordam beradi. Zamonaviy ta'lim texnologiyalarini kasb mutaxassisi, professorlar va xalq tili bilan aytganda wunderkind yoshlar ya'ni insonlar yaratadi va biz esa ulardan oqilona foydalangan xolda yangicha uslublar bilan yosh guruhlariga qarab faoliyat davomida qo'llab kelamiz va biz ijodkor tarbiyachilar ham o'z hissamizni qo'shgan holda bolalar bilan qiziqishiga va yoshiga qarab yangicha metolar ishlab chiqamiz. Bu metodlarimizning bir nechtasi ushbu maqolada yoritilgan.

Quyidagicha ta'lim texnologiyalarini misol qilib keltirishimiz mumkin:

1.O'YIN TEXNOLOGIYASI

O'yin bu yetakchi faoliyat hisoblanadi. Bu texnologiyani qo'llash orqali rasm chizish o'yin bilan uyg'unlashtiriladi. Masalan „Kim chiroyli daraxt chizadi? , Sehrli ranglar” kabi o'yin orqali bolada erkin va qiziqarli tasvirlash ijodi shakillanadi.

2.MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYASI

Bolajonga savol yoki vaziyat beriladi albatta yoshiga qarab. Masalan „Agar osmon



yashil rangda bo'lsa qanday rasm chizarding?" degan savol bilan bolani faoliyatga yetaklash va bolani tasavvurini va mustaqil fikrlashini rivojlantirish mumkin. Hamda ranglar uyg'unligidan bola psixikasini o'rganishda ham foydalanish mumkin.

3.LOYIHALI TEXNOLOGIYA

Bolajonni yosh toifasiga qarab ma'lum bir mavzu asosida rasm yoki ijodiy ish qilishiga qo'yib berish kerak. Masalan „Mening oilam” , „Tabiat hodisalari: fasllar” kabi mavzu berilganda bola erkin ijod qila olishi bu bolalarning jamoa bo'lib ishlashiga yordam beradi.

4.AKT(axborot-kommunikatsiya texnologiyalari)

Turli xil axborot-kommunikativ vositalar orqali ifodalangan fikr bolaga aniq va oson tushuntirishga yordam beradi. Multfilm, slayd, videoroliklar orqali biror fikrni yoki ma'lumotni berish bola tasavvurini yanada kuchli rivojlanishiga undaydi. Masalan birorta tasvirni tasvirlash uchun qaysi rangdan foydalanish kerakligini ham slaydlar orqali o'rgatish mumkin bunda ranglarni va shakillarni eshitgandan ko'ra vizual ko'rishi bolaning diqqati va xotirasini yaxshilaydi.

5.TRIZ texnologiyasi

Bu texnologiya asosida noan'anaviy rasm chizish usullari orqali bolaning oddiy narsalardan ham yangi obraz yaratishini va kreativlikni rivojlantirishni yo'lga qo'yish mumkin. Bolalar bu texnologiyada turli xil vositalardan foydalanishi mumkin. Masalan: barmoq bilan chizish, gupkalar yordamida tasvirlash, barglar va turli anjomlardan foydalanib o'z yaratuvchanligini oshirish mumkin. Bu texnologiyalar asosida bolalarning qobiliyati va mahoratini to'g'ri shakillantirish mumkin. Tasviriy ko'nikmalarni shakillantirishda zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llash bolalarda ijodkorlik qobiliyatini, estetik didini, mustaqil fikrlashini va qo'l harakatlarini ya'ni motorikani yaxshi rivojlantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Sh.Xasanova „Tasviriy faoliyatga o'rgatish nazariyasi va metodikasi” o'quv qo'llanma –Toshkent: Tafakkur,2020
- 2.F.Qodirova „Maktabgacha pedagogika” 2019
- 3.Internet saytlari